

INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA QOR – SNOW LEKSEMALARI MA’NO SOYALARINING CHO‘G‘ISHTIRMA TAHLILI

Ashurova Nodiraxon Rafiqovna

Associate Professor, University of Economics and Pedagogy

Andijan, Uzbekistan

Email: nashurova@403gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-7962-2342>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22725511>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma’qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Annotatsiya

Mazkur tezisda ingliz va o‘zbek tillarida qattiq holatdagi atmosfera yog‘inini ifodalovchi qor - snow leksemalarining lug‘aviy-semantik tarkibi, denotativ yadrosi, parametrik ma’no soylari hamda kontekstual, frazeologik va metaforik-semantik imkoniyatlari chog‘ishtirma aspektida tahlil qilinadi. Tadqiqot materialini O‘zbek tili milliy korpusi (UZ.CORPORA) va British National Corpus (BNC)dan olingan kontekstlar tashkil etadi. Tahlil jarayonida komponent-semantik, qiyosiy-kontrastiv va kontekstual tahlil usullaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari qor – snow leksemalarining umumiy denotativ-semantik yadrosi yuqori darajada izomorf ekanligini, biroq intensivlik, qalinlik, to‘planish, qoplash, rang, davomiylik va natijaviylik kabi ma’no soylarining ikki tilda turli sintagmatik vositalar orqali aktuallashishini ko‘rsatadi. Shuningdek, ingliz tilida as white as snow, pure as the driven snow, snowed under kabi turg‘un va metaforik birliklar, o‘zbek tilida esa qor kabi oppoq, qorday oppoq, qor bosgan, oppoq qor kabi birliklar qor konseptining obrazli-semantik imkoniyatlarini namoyon etadi.

Kalit so‘zlar:

qor, snow, atmosfera yog‘ini, sema, ma’no soyasi, denotativ yadro, komponent tahlili, korpus, frazeologizm, metafora, chog‘ishtirma tahlil.

Kirish

Tabiat hodisalarining nomlanishi har bir tilning borliqni konseptuallashtirish va kategoriyalashtirish imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim leksik qatlamlardan biridir. Atmosfera yog‘inlarini ifodalovchi birliklar orasida qor – snow leksemalari alohida o‘rin tutadi. Har ikki leksema bir xil tabiiy hodisani, ya’ni atmosfera tarkibidagi suvning qattiq kristall shaklda yerga tushishini nomlaydi. Shu sababli ular chog‘ishtirma tadqiqot uchun umumiy denotatga ega bo‘lgan funksional-semantik ekvivalentlar sifatida qaralishi mumkin. Etimologik jihatdan esa mazkur birliklar turli tarixiy manbalarga mansub. O‘zbek tilidagi qor qadimgi turkiy qar/qār shakllari bilan, ingliz tilidagi snow esa Proto-Germanic snaiwaz hamda Old English snāw shakllari bilan bog‘lanadi. Demak, ularning kelib chiqishi allomorf bo‘lsa-da, zamonaviy nominativ-semantik vazifasi izomorfdir.¹ Bu holat chog‘ishtirma tahlilda genealogik qarindoshlikdan ko‘ra umumiy denotat va semantik funksiyani asosiy mezon sifatida olish zarurligini ko‘rsatadi. Dissertatsiya materialida ham qor – snow juftligining zamonaviy meteorologik nominatsiyadagi umumiyliigi alohida qayd etilgan.

Leksik-semantik tahlil nuqtayi nazaridan qor - snow umumiy YOG‘IN – PRECIPITATION semantik maydonining mustaqil mikromaydonini tashkil etadi. Mazkur maydonda qor/snow asosiy nominativ birlik sifatida, snowfall, snowflake, snowstorm, blizzard kabi birliklar esa uning

turli jarayoniy, predmetli va meteorologik xususiyatlarini konkretlashtiruvchi periferik birliklar sifatida namoyon bo'ladi².

Komponent tahlili asosida qor – snow leksemalarining umumiy semantik tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin: QOR/SNOW = [+atmosfera yog'in] + [+qattiq agregat holati] + [+muz kristallari] + [+yog'ish] + [+to'planish/qoplash]. Bunda [ATMOSFERIK YOG'IN] arxisema vazifasini bajaradi. [QATTIQ AGREGAT HOLATI] va [MUZ KRISTALLARI] qorning fizik tabiatini, [YOG'ISH] uning jarayoniy xususiyatini, [TO'PLANISH/QOPLASH] esa yer yuzasida hosil qiladigan holatini ifodalaydi. Bundan tashqari, [OQ RANG] semasi qorning prototipik-tasviriy belgisi sifatida alohida ahamiyatga ega³. Mazkur semantik tarkibda [OQ RANG] boshqa semalardan biroz farq qiladi. Chunki oq rang qorning majburiy fizik belgisi emas: tabiatdagi qor turli sharoitlarda boshqa rang tuslariga ega bo'lishi mumkin. Biroq til va nutq tajribasida qorning eng tipik, prototipik belgisi oq rang bo'lgani sababli ushbu sema ko'plab qiyosiy va metaforik qo'llanishlarning manba komponentiga aylanadi.

D. A. Cruse leksik ma'noni semantik komponentlar va ular o'rtasidagi munosabatlar orqali tahlil qilish zarurligini ta'kidlaydi. J. Lyons esa semantik belgilarni boshqa birliklar bilan munosabatda va qiyoslash asosida aniqlash mumkinligini ko'rsatadi⁴. Ushbu nazariy yondashuvlar qor – snow leksemalarining denotativ yadrosi va kontekstual aktuallashtiruvini farqlash uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Qor - snow leksemalarining semantik imkoniyatlarini faqat lug'aviy ta'rif bilan chegaralab bo'lmaydi. Real nutqda mazkur leksemalar intensivlik, miqdor, qalinlik, chuqurlik, davomiylik, yangilik, to'planish, qoplash, erish va rang kabi turli parametrik belgilarni faollashtiradi.

BNCning KWIC va kollokatsion materiallarida heavy snow, deep snow, thick snow, fresh snow, falling snow, snow fell, covered, melting snow kabi birikmalar qayd etilgan. Ularning har biri snow leksemasining muayyan semantik komponentini aktuallashtiradi. Heavy snow birikmasida intensivlik va miqdor, deep snow va thick snow birikmalarida qalinlik va chuqurlik, fresh snow birikmasida yangilik, falling snow va snow fell birliklarida jarayon, melting snowda esa fizik holatning o'zgarishi ifodalanadi⁵. O'zbek tilidagi UZ.CORPORA materiallarida qor yog'ardi, qor bosgan adir, qor bosgan yo'llar, qor ostida, qor uyumi, oppoq qor, qor erib kabi kontekstlar kuzatiladi. Qor uyumi birikmasida qorning to'planish miqdori va shakli, qor bosgan adir va qor bosgan yo'llar birikmalarida qoplash, oppoq qorda rang, qor erib konstruksiyasida esa fizik holat o'zgarishi aktuallashtiradi⁶.

Shu asosda ikki tildagi asosiy parametrik ma'no soylari quyidagicha umumlashtiriladi:

Ma'no soyasi	O'zbek tilidagi ifoda	Ingliz tilidagi ifoda	Chog'ishtirma munosabat
Intensivlik/miqdor	mo'l qor, ko'p qor	heavy snow	funksional yaqin
Qalinlik/chuqurlik	qalin qor	deep/thick snow	funksional yaqin
Davomiy jarayon	qor yog'ardi	falling snow, snow fell	izomorfik
Yangilik	yangi qor	fresh snow	izomorfik
To'planish	qor uyumi	snowdrift	funksional yaqin
Qoplash	qor bosgan yo'l	snow-covered road	qisman izomorfik
Erish	qor eridi	melting snow, snow melts	izomorfik
Rang	oppoq qor	white snow	izomorfik

Mazkur ma'lumotlar ikki tilda umumiy semantik asos mavjudligini ko'rsatadi. Biroq semantik urg'uning ifodalanish vositalari farqlanadi. Ingliz tilida heavy, deep, thick, fresh, falling, melting kabi atributiv va predikativ birliklar snowning parametrik xususiyatlarini aniq chegaralaydi. O'zbek tilida esa yog'moq, bosmoq, uyum, ostida, oppoq, erimoq kabi birliklar shu belgilarni turli sintagmatik modellar orqali ifodalaydi.⁷

Bu farq ikki tilning grammatik va leksik imkoniyatlari bilan bog'liq bo'lib, semantik mazmunning o'zida keskin tafovut mavjudligini anglatmaydi. Aksincha, bir xil denotativ hodisaning turli til tizimlarida turlicha verbalizatsiya qilinishini ko'rsatadi.

Korpus materiallari asosida chog'ishtirma tahlil

Tadqiqotda qor - snow birliklarining real nutqdagi qo'llanishini aniqlash uchun UZ.CORPORA va BNC materiallaridan foydalanilgan. O'zbek korpusida qor leksemasi bo'yicha 1301 ta matn va 3080 ta so'zshakl, ingliz tilidagi BNC materialida esa 838 ta matn qayd etilgan. Tahlil uchun o'zbek tilidan 190 ta, ingliz tilidan esa 200 ta kontekst tanlab olingan⁸. O'zbek tilidagi 190 ta kontekstning janriy taqsimotida gazeta-jurnal materiallari 52,1 %, ommabop-publitsistik maqolalar 28,9 %, ob-havo axborotlari va rasmiy bulletinlar 10 %, she'riyat 5,3 %ni tashkil etadi. BNCdagi 200 ta snow kontekstida esa badiiy adabiyot 36 %, aralash/tasniflanmagan materiallar 14,5 %, ommabop bilimga oid materiallar 13,5 %, gazeta-matbuot jurnalistikasi 9,5 % va boshqa janrlar qayd etilgan⁹.

Korpus natijalari qor - snow birliklarining nafaqat uchrash chastotasini, balki qaysi semantik belgilar kontekstda faollashishini aniqlash imkonini beradi. Masalan, qor bosgan adir kontekstida [QOPLASH], oppoq qor ostida birikmasida [OQ RANG] + [QOPLASH], qor erigan kontekstida esa [ERISH] semasi aktuallashadi. BNCdagi white snow, deep snow, falling snow, covered, melting snow kabi birikmalar ham xuddi shunday kontekstual semantik faollashuvni ko'rsatadi¹⁰. BNC kollokatsion materialida WHITE - 172, DEEP - 77, COVERED - 64, FALLING - 62, SNOW - 48 kabi ko'rsatkichlarning qayd etilishi snow leksemasining rang, chuqurlik, qoplash va jarayon bilan bog'liq semantik imkoniyatlari faol ekanligini ko'rsatadi¹¹. Shu jihatdan korpus tahlili qor - snow leksemalarining ma'no soyalarini faqat nazariy taxmin sifatida emas, balki real nutq materiallari asosida tavsiflash imkonini beradi.

Qor - snow leksemalarining semantik imkoniyatlari nominativ meteorologik ma'no bilan chegaralanmaydi. Ularning prototipik belgilaridan, xususan, oq rang, poklik, sovuqlik va qoplash xususiyatlaridan turli obrazli va metaforik ma'nolarni shakllantirishda foydalaniladi. O'zbek tilida qor kabi oppoq va qorday oppoq kabi birliklar qorning [OQ RANG] semasini insonning tashqi ko'rinishi yoki boshqa predmetning rangini ifodalashga ko'chiradi. Masalan, yosh-u keksalarning yuzida oppoq qor kabi ma'sum, yoqimli tabassum porlab turardi kontekstida qorning oq rang belgisi insonning ma'sumlik va beg'uborlik xususiyatiga ko'chiriladi¹².

Ingliz tilida *as white as snow* turg'un qiyosiy konstruksiyasi qorning oq rangini qiyoslash mezon sifatida ishlatadi. BNCdagi *Susan's face was as white as snow...* kontekstida snow real meteorologik denotat sifatida emas, balki inson yuzining rangini tavsiflovchi obrazli mezon sifatida namoyon bo'ladi¹³. Bundan tashqari, ingliz tilida *pure as the driven snow* konstruksiyasida qorning oq rang belgisi bilan bir qatorda poklik, beg'uborlik va axloqiy soflik semalari faollashadi. Bu holatda konkret tabiiy obyektning prototipik belgisi inson xarakterini baholash uchun konseptual manbaga aylanadi.

Snow under / snowed under birliklarida esa qorning qoplash xususiyati abstrakt sohaga ko'chiriladi. Mazkur birliklar ish, vazifa yoki muammolarning haddan tashqari ko'pligi ostida qolish ma'nosini ifodalaydi. Bunda qorning fizik qoplash xususiyati insonning ko'p sonli vazifalar bilan "qoplanib qolishi" holatini konseptuallashtirishga xizmat qiladi¹⁴. Shunday qilib, qor - snow leksemalarining metaforik-semantik kengayishida quyidagi asosiy konseptual yo'nalishlar kuzatiladi:

SNOW → OQ RANG;

SNOW → POKLIK/BEG'UBORLIK;

SNOW → SOVUQLIK;

SNOW → QOPLASH/MASSA.

G. Lakoff va M. Johnsonning konseptual metafora nazariyasi nuqtayi nazaridan bunday ko'chishlar konkret tajribaga asoslangan manba domeni xususiyatlarining mavhum nishon sohaga ko'chirilishi bilan izohlanadi¹⁵. *Snowning* oq rang, qoplash va massa kabi ko'zga tashlanadigan xususiyatlari boshqa konseptual sohalarni ifodalash uchun manba vazifasini bajaradi. Bunda muhim metodik jihat shundan iboratki, har qanday obrazli qo'llanishni avtomatik ravishda frazeologizm sifatida baholash mumkin emas. Masalan, *qor kabi oppoq va*

qorday oppoq birikmalari kontekstual qiyos bo'lishi mumkin; as white as snow esa turg'un qiyosiy konstruktsiya sifatida faol qo'llanadi. Snowed under esa frazeologik-metaforik kengayish xususiyatiga ega. Shu sababli kontekstual obrazlilik, turg'un qiyos va frazeologik birliklarni o'zaro farqlash zarur.¹⁶

Xulosa

Ingliz va o'zbek tillaridagi qor - snow leksemalarining chog'ishtirma tahlili quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

1.Qor - snow genealogik jihatdan turli tillarga mansub bo'lsa-da, zamonaviy semantik-funksional nuqtayi nazardan bir xil meteorologik denotatni ifodalovchi funksional ekvivalent birliklardir. Ularning umumiy semantik asosini [atmosferik yog'in], [qattiq agregat holati], [muz kristallari], [yog'ish], [to'planish/qoplash] semalari tashkil etadi.

2.[Oq rang] qorning prototipik-tasviriy semasi bo'lib, u ikki tilda ham kontekstual va obrazli ma'no hosil qilishda faol qatnashadi.

3.Qor - snow leksemalarida intensivlik, miqdor, qalinlik, chuqurlik, davomiylik, yangilik, to'planish, qoplash, erish va rang kabi parametrik ma'no soylari mavjud. Ularning semantik mazmuni ikki tilda asosan izomorf bo'lsa-da, verbal ifodalanish vositalari qisman farqlanadi.

4.Korpus materiallari ingliz tilida heavy snow, deep snow, thick snow, fresh snow, falling snow, melting snow kabi birliklar orqali qorning miqdoriy, fizik va jarayoniy xususiyatlari aniq aktuallashishini ko'rsatadi. O'zbek tilida esa qor yog'ardi, qor bosgan yo'l, qor uyumi, oppoq qor, qor eridi kabi sintagmatik modellar xuddi shu semantik belgilarni ifodalaydi.

5.Qor - snow leksemalarining metaforik kengayishida oq rang, poklik, sovuqlik va qoplash kabi prototipik belgilar asosiy manba semalar sifatida namoyon bo'ladi. Ingliz tilidagi as white as snow, pure as the driven snow, snowed under hamda o'zbek tilidagi qor kabi oppoq, qorday oppoq kabi birliklar ushbu semantik imkoniyatning turli til tizimlaridagi verbalizatsiyasini ko'rsatadi.

Umuman, qor - snow leksemalarining ma'no soylarini o'rganish ularning faqat nominativ ma'nosini emas, balki kontekstual, frazeologik va metaforik-semantik imkoniyatlarini ham ochib beradi. Bu esa ikki tilning tabiat hodisalarini konseptuallashtirish va lingvomadaniy jihatdan ifodalashdagi umumiy hamda o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Qor/Snow leksemalarining etimologik-qiyosiy modeli. Dissertatsiya materiali. – B. 4–5.
2. Qor/Snow leksemalarining leksik-semantik maydondagi o'rni. Dissertatsiya materiali. – B. 18–19.
3. Qor/Snow leksemalarining semik tarkibi. Dissertatsiya materiali. – B. 12.
4. Lyons, J. Semantics. Vol. 1. – Cambridge: Cambridge University Press, 1977. – P. 241–245, 317–320; Cruse, D. A. Lexical Semantics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1986. – P. 16–19, 86–90, 112–118. Dissertatsiyada keltirilgan bibliografik ma'lumot.
5. British National Corpus (BNC). Snow leksemasining KWIC va collocates materiallari. Dissertatsiya materiali. – B. 58.
6. O'zbek tili milliy korpusi (UZ.CORPORA). Qor leksemasining konkordans materiallari. Dissertatsiya materiali. – B. 58.
7. "Qor/Snow" leksemalarining parametrik ma'no soylari. Dissertatsiya materiali. – B. 58–59.
8. UZ.CORPORA va BNC asosidagi qor - snow korpus materiallari: UZ.CORPORA – 1301 matn, 3080 so'zshakl, 190 tahliliy namuna; BNC – 838 matn, 200 tahliliy namuna. Dissertatsiya materiali.
9. Qor - snow korpusining janr-uslubiy taqsimoti. Dissertatsiya materiali.
10. UZ.CORPORA va BNC materiallarida qor/snow semalarining kontekstual faollashuvi. Dissertatsiya materiali. – B. 20–21.
11. BNC snow kollokatsion materiallari: WHITE – 172, DEEP – 77, COVERED – 64, FALLING – 62, SNOW – 48. Dissertatsiya materiali. – B. 20.
12. UZ.CORPORA materialidagi "oppoq qor kabi ma'sum..." konteksti. Dissertatsiya materiali. – B. 22.

13. British National Corpus. "Susan's face was as white as snow..." konteksti. Dissertatsiya materiali. – B. 22.
14. Snow under/snowed under birliklarining metaforik-semantik talqini. Dissertatsiya materiali. – B. 22.
15. Lakoff, G., Johnson, M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980. – P. 3–6, 14–21. Qor/Snow leksemalarining kontekstual, frazeologik va metaforik-semantik kengayishini farqlash mezonlari. Dissertatsiya materiali. – B. 22.
16. Nodirakhon Rafiqovna Ashurova. A COMPARATIVE STUDY OF THE SEMANTIC AND CONCEPTUAL FEATURES OF THE "RAIN/YOMG'IR" CONCEPT IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES. (2025). Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 5(11), 260-262. <https://mstjournal.com/index.php/mst/article/view/5600>
17. Ashurova N. R. Ingliz va o'zbek tillarida ob-havo hodisalari leksikasining semantik va struktur tipologiyasi // The Journal of Economics and Pedagogy. – 2026. – T. 1. – №. 2. – B. 38–44. URL: <https://journal.uniep.uz/jour/uz/article/view/45>

Annotation:

his thesis provides a comparative analysis of the lexical-semantic structure, denotative core, parametric shades of meaning, as well as the contextual, phraseological, and metaphorical-semantic potential of the lexemes qor and snow, which denote solid atmospheric precipitation in Uzbek and English, respectively. The research material consists of contextual data obtained from the National Corpus of the Uzbek Language (UZ.CORPORA) and the British National Corpus (BNC). The study employs componential-semantic, comparative-contrastive, and contextual analysis methods. The findings demonstrate that the qor – snow lexemes have a highly isomorphic common denotative-semantic core; however, shades of meaning related to intensity, thickness, accumulation, covering, colour, duration, and resultant state are actualized in the two languages through different syntagmatic means. Furthermore, fixed and metaphorical expressions such as as white as snow, pure as the driven snow, and snowed under in English, and qor kabi oppoq, qorday oppoq, qor bosgan, and oppoq qor in Uzbek, reveal the figurative-semantic potential of the qor – snow concept.

Keywords:

snow, qor, atmospheric precipitation, seme, shade of meaning, denotative core, componential analysis, corpus, phraseological unit, metaphor, comparative analysis.